

XASANOVA Dilbar Karimdjonovna
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Chet tillari kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD
khasanovadilbar88@gmail.com

KOMPETENSIYA VA KOMPETENTLIK TUSHUINCHALARI IZONI

РАЗЪЯСНЕНИЕ ПОНЯТИЙ КОМПЕТЕНЦИЯ И КОМПЕТЕНТНОСТЬ

DIFFERENTIATING COMPETENCE AND COMPETENCY

Annotatsiya: Bugungi kunda yoshlarni xalqaro standartlar talablariga mos keladigan kadr sifatida tayyorlash uchun keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Butunjaxon ta'lim forumi tahlillaridan kadrlar tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida dars olib borishni ta'minlashga bo'lgan xarakteristikalar amalga oshirilayotganini guvohi bo'lamiz. Jamiyat talablaridan kelib chiqib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, jahon mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mamlakatimiz uchun ustuvor maqsadlardan biri bo'lib kelmoqda.

Ushbu maqolada davr talabiga mos keluvchi kadrlarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kasbiy sifatlar, kompetensiyaviy yondashuv, raqobatdosh kadr,

Аннотация: Сегодня предпринимаются масштабные усилия по обучению и подготовке молодых людей для соответствия международным стандартам кадров. Изучая опыт высших учебных заведений мирового сообщества, мы можем наблюдать приверженность внедрению компетентностного подхода в подготовке кадров. Эта приверженность очевидна на таких мероприятиях, как Всемирный образовательный форум и конвенция о признании квалификаций, связанных с высшим образованием в европейском регионе.

В данной статье проводится анализ роли компетентностного подхода в подготовке кадров, отвечающих современным требованиям.

Ключевые слова: профессиональные качества, компетентностный подход, конкурентоспособный персонал.

Abstract: Today, extensive efforts are underway to educate and train young individuals to meet international standards for personnel. As we examine the experiences of higher education institutions within the global community, we can observe a commitment

to implementing the competence-based approach in personnel training. This commitment is evident at events such as the World Education Forum and the convention on the recognition of qualifications related to higher education in the European region.

This article undertakes an analysis of the role of the competence-based approach in preparing personnel who meet contemporary requirements.

Keywords: professional qualities, competence-based approach, competitive personnel.

KIRISH

Til o'rgatishga bo'lgan ehtiyoj va xohish mamlakatimiz yoshlari uchun yangi g'oya va intilish emasligini biz ajdodlarimiz misollarida ham ko'rishimiz mumkin. Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Imom al-Buxoriy, Mahmud Zamahshariy kabi o'z ilmiy-ijodiy ishlarini o'z ona tilidan boshqa tillarda olib borgan. Insoniyat taraqqiyotiga hissa qo'shgan o'nlab buyuk allomalarimizning hayot yo'llaridan ma'lumki, xorijiy tilni bilish va unda erkin muloqot qila olish bizning yoshlarimiz uchun ajdodlar yo'lini tutish va ularga ergashish ham demakdir. XX asr boshlariga kelib esa milliy uyg'onish va millatparvarlik harakatlariningoldingi safida turgan qator allomalar, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jaevlar xorijiy tilni o'rganish zamon talabi ekanligini ta'kidlab o'tishgan. Bu borada Isxoqxon Ibratning ilmiy asar va maqolalarida Sharq va G'arb tillarini bir vaqtda o'rganish lozimligini bot-bot eslatib o'tgan. Uning o'zi ham 1892-1896 yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Bombay va Kalkuttada yashab, u yerda ko'p ishlatiladigan arbailisonni, ya'ni to'rt tilni: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o'rganadi [5].

Isxoqxon to'raning chet tillarida xat yozishga, ya'ni undagi chet tilida yozuv kompetensiyasini yuqori ekanligini Ibroxim Davron xam "...Fazoili insoniyadin maoda qozi to'ra (Is'hoqxon) janoblari turkcha, forsha, hindicha, ruscha lison bilib, yana ruscha, fransuzcha, armanicha va boshqa xatlar yozmoqqa mohirdurlar" moxir ekanligini ta'kidlab o'tadi. Maxmudxo'ja Behbudiyning "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasini esga oladigan bo'lsak, u millat taraqqiyoti uchun biror bir uzoq xorijiy tilni bilish shart deb hisoblagan.

Bugungi kunga kelib ham yoshlarni xalqaro standartlar talablariga mos keladigan kadr sifatida tayyorlash uchun keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Jahon hamjamiyati oliy ta'lim muassalarining tajribalarini kuzatar ekanmiz,

Butunjaxon ta'lim forumida, Yevropa mintaqasida oliy ta'limga taalluqli malakalarni tan olish to'g'risidagi konvensiyada kadrlar tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida dars olib borishni ta'minlashga bo'lgan xarakatlarni guvohi bo'lamiz.

Jamiyat talablaridan kelib chiqib, turli millat vakillari bilan chet tilida muloqotga kirisha oladigan, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila oladigan, axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan [11], o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlarni qabul qila oladigan jahon mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mamlakatimiz uchun ustuvor maqsadlardan biri bo'lib kelmoqda. Endilikda, Oliy ta'lim muassalari nofilologik yo'nalish bitiruvchilarining chet tilini bilish darajasi B2 bo'lishini ta'minlash maqsadida ta'lim sifatini oshirish uchun chora-tadbirlar ko'rilmogda. 2019 yil 16 yanvardagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4119 - sonli qarorida milliy oliy ta'lim muassalarida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida xalqaro standart va xorijiy tajribalarni qo'llash belgilab berilgan. Biz olib borgan tadqiqot maqsadi ham bo'lajak dinshunoslarni umumiy va kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablarga mos keladigan shakl va metodlarni aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz tadqiqotlar jarayonida bo'lajak dinshunoslarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan Gumanitar fanlar ta'lim sohasi Davlar ta'lim standarti, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, O'zbekiston respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan malaka talablarini [11] asos qilib oldik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 2909 - sonli qarori bilan tasdiqlangan "2017 - 2021 yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlar Dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Dasturi" [11] asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston – ko'p konfessiyali mamlakatlardan biri hisoblanib, unda istiqomat qiladigan millat va elatlar 16 konfessiyaga amal qiladi. Adliya vazirligi va uning hududiy

bo'linmalari tomonidan jami 2 ming 318 diniy tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazilgan. Shulardan 2 ming 127 tasi islomiy, 191 tasi noislomiy. Bulardan 2099 tasi masjid va 184 tasini cherkovlar tashkil etadi. Ushbu diniy tashkilotlarda faoliyat yuritadigan dinshunoslarning asosiy vazifasi aholini o'zaro tinch, totuv va hamkor faoliyat ko'rsatishi Vatanimiz ravnaqi, yurtimiz tinchligini ta'minlashga xizmat qilishdan iborat. Bundan tashqari bo'lajak dinshunoslar

– xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, gumanitar fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

– axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish

kabi umumiy kompetensiyalarga ega bo'lishi, shu bilan birgalikda,

– din tushunchasi, dinni o'rganishdagi yondashuvlar, dinshunoslikning alohida fan sifatida shakllanishi, uning sohalari haqida bilish;

– din niqobidagi taxdidlarga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari, ekstremistik oqimlarning g'oyalari, faoliyat uslublari to'g'risida ko'nikma hosil qilish;

– milliy jaxon dinlari tarixi, ta'limotlari, bayramlari, diniy manbalari, okim va yo'nalishlari haqida ko'nikmalarga ega bo'lish;

– islomshunoslik asoslari, Qur'onshunoslik, Qur'on ilmlarining shakllanishi va hozirgi kundagi xolati, hadisshunoslik va ushbu sohaga oid zamonaviy tadqiqotlar. aqidaviy va fikriy mazhablar, hanafiylik-Moturidiylik ta'limoti asoslarini bilish; davlat va din munosabatlari, dunyoviy davlat va dinning o'zaro munosabatlari va ularning xukukiy asoslarining mazmun-mohiyatini tushuntirish;

– din sotsiologiyasi, din psixologiyasi, din falsafasi va mohiyatini sharq falsafasi, xususan, islom falsafasining asosiy masalalari va konsepsiyalari haqida bilish;

– dinlarni o'rganishdagi qiyosiy yondashuvlar, dinning kelib chiqishidagi, ta'limoti va aqidalaridagi tafovutlarni qiyosiy taxlil etish;

– dinlardagi oqimlar va sektalar, turli davrlarda yuzaga kelgan yo'nalishlar tarixi va g'oyalari haqida ko'nikmaga ega bo'lish;

– diniy manbalarning tasniflashi, manbalar bilan tadqiqot olib borish, dinlarning mukaddas manbalari – Aligrafit, Avesto, Tanax, Tripitaka, Bibliya, Kur’ondagi mavzular bayonini qiyoslash ko’nikmasiga ega bo’lish [11] singari kasbiy kompetensiya va malakaga ega bo’lishlari kerak.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Yuqoridagi dinshunoslik yo’nalishi talabalari oldiga qo’yilgan malaka talablaridan kelib chiqib, ularning kasbiy kompetentligini A.K.Markovanning klassifikatsiyaga asoslanib, uch qismga bo’lishimiz o’rinlidir.

A.K.Markova klassifikatsiyasi

mazmuniy	motivatsion	amalda qo’llash
----------	-------------	--------------------

1-rasm. A.K.Markova tomonidan kasbiy kompetensiya borasida ishlab chiqilgan klassifikatsiya

Bo’lajak dinshunoslarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda xorijiy hamda respublika olimlarining olib borgan tadqiqotlari, ilmiy asoslari va g’oyalari asoslanib, ilmiy-nazariy va kompetensiyaviy yondashuv asosida metodologik asosni ishlab chiqdik.

Kompetensiya tushunchasiga 1950 va 1960 yillarda tilshunoslar va tadqiqotchilar tomonidan struktural va kognitiv tendensiya sifatida e’tibor qaratilishi boshlangan, hamda 1970 yilning boshlariga borib Dell Xaymes va Savignon tomonidan unga konstruksiya sifatida aniq ta’rif berilgan [8]. Ularning fikriga ko’ra, lingvistika va kommunikativ kompetensiya o’rtasidagi farq bu ma’lumot almashinuvining so’zlovchilarda ikki tomonlama bo’lishiga imkon berilshidir. Ba’zi mualliflar Xomskiyning kompetensiya atamasining asoschisi deb bilishadi [163]. Ammo Xomskiyning tilshunoslik sohasiga qo’shgan hissasi va uning ushbu atamani qo’llashi boshqa tadqiqotchilardan farq qiladi. Ta’lim sohasida masalan, Messik kompetensiyani “shaxsning bir mavzuda nimani bilishi va nima qilishi mumkinligi” deb ta’riflaydi. Shu bilan birga, u ta’lim sharoitida u o’quvchining bilim va ko’nikmaga ega bo’lishini zarurligini ta’kidlaydi, xoh u yo’riqnoma orqali bo’lsin, xoh tajriba orqali bo’lsin. Ammo Xomskiyning fikrini bir jihatiga e’tibor qilish kerakki, kompetensiya aynan “yopiq, ko’rinmaydigan” salohiyatni “ishlatilishi”dir. Uning ta’kidlashicha, “ishlatilish” bu so’zlovchining ongli ravishda fikrlarini tilga ko’chishidir. R. Uayt esa o’zining “Motivatsiya

qayta ko’rib chiqildi: kompetensiya tushunchasi” kitobida ta’riflashicha, kompetensiya kategoriyasi shaxsiy komponentlar, shu jumladan motivatsiya bilan to’ldiriladi.

Shu borada, o’tgan asrning 60- yillaridan to xozirgi kunga kelib farqlanayotgan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari ko’rib chiqilgan. “Chet tili so’zlarining qisqa lug’atida” berilishicha, “kompetentlik” lotin tilidagi *competens, competentis* so’zlaridan kelib chiqqan bo’lib, “biluvchi”, ma’lum sohada bilimli va o’z bilimiga tayangan holda soha masalalarida qaror chiqara oluvchi degan ma’noni bildiradi [4]. N. Fedotovanning nazarida, kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda shaxsning o’zini kanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik” [8]. degan ma’noda keladi.

B.Xodjaev pedagogikaning eng muhim kategoriyalari sifatida *shaxs, tarbiya, ta’lim (o’qitish, o’qish), bilim, ko’nikma, malaka, kompetensiya, ma’lumot, shakllantirish, rivojlantirish*ni sanab o’tadi. Agar ta’limning “o’quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko’nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o’stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo’naltirilgan jarayon” [138]. ekanini hisobga oladigan bo’lsak, bilim ta’lim jarayonidagi asosiy ustun ekanini va uni kompetensiyaga aylanishi uchun talabadan muayyan faoliyatni tashkil etish layoqati talab qilinadi. Xodjaev shuningdek kompetentlikni bilim va ko’nikmaning yaxlit tarzda ifodalanishi deb biladi.

XULOSA

Olimlar kompetensiya va kompetentlik orasidagi tavofutni aniqlash ekan, bizning xulosa quyidagicha: kompetensiya bu individual psixologik xususiyat bo’ladigan bo’lsa, o’quvchining ma’lum bir sohada samarali mehnat qila olish salohiyatini oldindan belgilab berilgan me’yorni u kompetentlik deb ataymiz. Shu sabab, biz kompetensiya va kompetentlikni sinonim sifatida ko’rmaymiz. Bu ikki tushuncha shaxsning ichki va tashqi dunyosi bilan bog’liq deb qarab, kompetensiya- tashqi olam tarafidan qo’yilgan me’yor bo’ladigan bo’lsa, kompetentlik- shu me’yorga ega bo’lgan shaxsiy xususiyatdir.

Ammo M.D. Ilyazova va I.A. Chebannaya bu fikrga qo'shilmagan holda, yuqoridagi ikki tushunchani sinonim sifatida ko'radi. ularning fikricha, "kompetentlik" va "kompetensiya" turli xil asoslar bilan farqlanadi [14].:

– Kompetentlik bilim, malaka, ko'nikma (BMK) yig'indisi bo'ladigan bo'lsa, kompetensiya faqat kasbga aloqador funksiyani bajaradi.

– umumiy va o'ziga xos ko'rishida bo'ladi va kompetentlik kompetensiyaning yig'indisi hisoblanadi;

– tabiatan farqlanadi, kompetensiya ijtimoiy talabga begona tushuncha bo'ladigan bo'lsa, kompetentlik bu shaxsning faqat o'zigagina xos xususiyatdir;

– ular o'rtasida o'zaro ichki va tashqi bog'liqlik bor, kompetensiya bu potensial kompetentlik, kompetensiyaning amaldagi ko'rinishidir [4].

X.F.Maksudova ham "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini shaxsning kasbiy faoliyati asosida uning jamiyatdagi o'rnini belgilovchi, baholovchi bosh omil sifatida ko'radi. [3]. Shuningdek olimlar Yu.V. Lopatina va K.V. Markaryanlar ilgari surgan ta'rif, ya'ni "ishbilarmonlik kompetensiyasi" ni ham kasbiy kompetensiyaning ajralmas bo'lagi deb izohlaydi.

V.D. Shadrikov esa kompetensiyaga bu bir shaxsning o'zi yaxshi tushunadigan masalalari, vakolatlari va huquqlari to'plamidir, deya ta'rif beradi. Uning fikricha, kompetensiya ish faoliyatining predmetiga emas, shu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan masalalarga taalluqlidir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, kompetensiya bu kimningdir bir vazifani boshqalarga nisbatan yaxshiroq uddalay olishi bo'lsa, kompetentlik bir faoliyatning subyekti hisoblanadi. Kompetentlik har bir shaxsning muayyan bir vaziyatda masalaga o'ziga xos xususiyatdan kelib chiqib yondashuviga aytiladi [2].

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari borasida har bir olimning o'z ta'riflari, o'z o'lchami mavjud. Ushbu baxslarning asosiy sababi, bizningcha, xar ikkala atamaning bir-birini o'rnini bosa olishi, ya'ni muayyan darajada almashtirib ishlatish bo'la olishidadir. Ushbu baxsning kelib chiqish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, Sh.Akbarovanning ta'rifi shuncha, "kompetensiya" AQSh ta'limi mohiyatida, "kompetentlik" esa Britaniya kasbiy standartlaridan kelib chiqqanini ko'rishimiz mumkin [1].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akbarova, S. K. (2021). The Use of Communicative Methods in Teaching English // *Thematics Journal of English Language Teaching*, 5 (1).
2. Akmalovna, T. N., Muminova, D., Khasanova, D., & Kadyrova, M. (2022). Teaching grammar for religious studies students based on needs analysis. *Journal of Positive School Psychology*, 6003-6011.
3. Tursunov B.B. Jadidlar faoliyatida xorijiy tillar targ'iboti // <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-3-43> . – B. 319.
4. Dilbar, K. (2023). How to Engage Students with Religious Texts and Ideas Through the Efl Classes? // *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 18(5), 23-25
5. Is'hoqxon Ibrat. Lug'ati sitta al-sina. – Toshkent: Ilin tipografiyasi, 1901.
6. Khasanova D. K. Kompetentli yondashuvga asoslanib o'qitishning pedagogik- psixologik xususiyatlari // *Scientific Bulletin of Namangan State University*. – 2020. – T. 2. – №. 11. – C. 371-376.
7. Khasanova, D. (2022, November). COMMUNICATIVE ACTIVITIES IN ESL CLASSES FOR RELIGIOUS STUDIES STUDENTS. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 1, No. 2, pp. 197-199).
8. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics*. Harmondsworth, UK: Penguin Books.
9. Maksudova X.F. Farmasevtika yo'nalishida ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy layoqatlarini rivojlantirish: Ped. fan. falsafa dok (PhD) ... diss. – T., 2021. – B 22.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4119-son qarori // www.lex.uz.
11. O'zR OO'MTV, 5120600-Dinshunoslik bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari. – T., 2020.
12. Shamsematova, B. R. (2022). Specific Features Of Language Units Expressing National Value In The Works Of Uzbek Writers. *Eurasian Research Bulletin*, 13, 114-116.
13. Shirinova Feruza Atxamovna. (2022). Learning English Via Distance is a Supportive Clue for Nonbiological Students During Their Self-Study // *Eurasian Research Bulletin*, 13, 107-110. Retrieved from // <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/2424>
14. Чебанная И А Понятие и структура компетенций выпускников в условиях профессионального образования // *Вестник Ставропольского государственного университета*. – Ставропол: Изд-во СГУ, 2008. – Вып. 55 – С. 62-65.